

OLIJ TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIJ YONDASHUVLARI

Boboqulova Sabohat Misratovna

Ilmiy rahbar: Xalikov A'zam Abdusalomovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarini boshqarish tizimining mazmuni, asosiy funksiyalari, zamonaviy yondashuvlari va muammolari tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun samarali boshqaruv modellarini joriy etish yo'llari muhokama qilinadi. Maqolada oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari, tizimli yondashuvlari va ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar fonida boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Rivojlangan xorijiy tajriba bilan taqqoslovij tahlil asosida milliy boshqaruv modelini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, boshqaruv, strategik rejalashtirish, akademik erkinlik, korporativ boshqaruv, raqamli transformatsiya, ta'lim, ta'lim muassasalari, ta'lim tizimini boshqarish.

Annotation: This article analyzes the content, main functions, modern approaches and problems of the management system of higher education institutions. Based on the experience of developed countries, ways of introducing effective management models for the higher education system of Uzbekistan are discussed. The article covers modern concepts, systematic approaches and scientific and theoretical foundations of managing higher education institutions. The main directions of improving management efficiency against the background of reforms in the higher education system of Uzbekistan are considered. Based on a comparative analysis with developed foreign experience, proposals are developed to improve the national management model.

Keywords: higher education, governance, strategic planning, academic freedom, corporate governance, digital transformation, education, educational institutions, education system management.

Аннотация: В статье анализируются содержание, основные функции, современные подходы и проблемы системы управления высшими учебными заведениями. Будут обсуждены пути внедрения эффективных моделей управления системой высшего образования Узбекистана на основе опыта развитых стран. В статье рассматриваются современные концепции, системные подходы и научно-теоретические основы управления высшими учебными заведениями. Рассмотрены основные направления повышения эффективности управления на фоне реформ в системе высшего образования Узбекистана. На основе сравнительного анализа с развитым зарубежным опытом разработаны предложения по совершенствованию национальной модели управления.

Ключевые слова: высшее образование, управление, стратегическое планирование, академическая свобода, корпоративное управление, цифровая трансформация, образование, образовательные учреждения, управление системой образования.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda qator yirik hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198- sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, tizim orqali davlat tomonidan maqsadli ravishda amalga oshiriladigan innovatsion jarayonlarni qo‘llash, ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish

va boshqaruv faoliyatidagi o'zgarishlarni talab qiladi. Ta'lim dasturining tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi: 1) professor-o'qituvchilar jamoasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish; 2) ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlari, uning maqsad va vazifalari; 3) maktab o'quv dasturining asoslari; 4) o'quv rejasining o'zgaruvchan (maktab) tarkibiy qismida ularni ta'minlaydigan o'quv fanlari va dasturlari ro'yxati; 5) qo'shimcha ta'lim dasturlari to'plami; 6) o'quv dasturining o'zgaruvchan qismini o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash. Bunda boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta'minlash, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini bashorat qilish va qabul qilish, boshqaruv faoliyatini rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishdir. Ta'limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o'tkazish kerak.

Hozirda Global raqobat kuchayib borayotgan bir davrda har bir davlatning taraqqiyoti ko'p jihatdan uning ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy talablar asosida boshqarish dolzarb masalaga aylangan. Yangi boshqaruv modellari ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga zamin yaratadi. Oliy ta'lim muassasasini boshqarish — bu ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Bunda boshqaruvning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Rejalashtirish – uzoq va qisqa muddatli strategiyalar ishlab chiqish;

Tashkil etish – kadrlar, strukturaviy bo'linmalar va resurslar bilan ta'minlash;

Motivatsiya – professor-o'qituvchilar va talabalarni rag'batlantirish tizimini yaratish; Monitoring va nazorat – ta'lim sifati va faoliyat natijalarini baholash.

Hozirgi global axborotlashuv, innovatsion texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ilm-fan va ta'lim o'rtasidagi integratsiya, xalqaro reytinglarda munosib o'rin

egallash, akademik erkinlik va iqtisodiy mustaqillik — bugungi kundagi boshqaruvning muhim omillaridandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’limga oid farmon va qarorlarida ushbu tizimni isloh qilish, samarali boshqaruv modelini joriy etish, OTMlar reytingini oshirish kabi dolzarb masalalar alohida o‘rin egallaydi. Oliy ta’lim muassasalari jamiyatning ilmiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ularni boshqarishda to‘g‘ri va samarali yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Bugungi maruzada, oliy ta’lim muassasasining samarali boshqarilishini ta’minlash uchun qanday asosiy jihatlar mavjudligi haqida so‘z yuritaman. Oliy ta’lim muassasasini samarali boshqarish, ta’lim sohasida muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Bunday boshqaruv nafaqat akademik darajalarni oshirish, balki jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Samarali boshqaruv tizimi muassasani yanada kuchliroq qilish, uning missiyasini amalga oshirish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli boshqarilishi uchun kuchli liderlik talab etiladi. Rektor yoki boshqaruv raisi universitetning strategik yo‘nalishlarini belgilab, ta’lim sifatini, ilmiy izlanishlarni va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishi kerak. Bunday liderlik, ayniqsa, uzoq muddatli rejalashtirishda va o‘zgarishlarga moslashishda zarurdir. Oliy ta’lim muassasalarining samarali ishlashi uchun, birinchi navbatda, ta’lim sifatiga e’tibor qaratish kerak. Bu o‘z ichiga o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash, ilg‘or metodlarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, masofaviy ta’limni rivojlantirish, va interaktiv metodlarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Oliy ta’lim muassasasining samarali faoliyat yuritishi uchun resurslarni to‘g‘ri boshqarish juda muhim. Bu mablag‘larni, moddiy-texnik bazani, kadrlarni va ilmiy salohiyatni samarali taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Resurslarni maksimal darajada samarali ishlatish, universitetning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish orqali global bilim va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xalqaro hamkorliklar o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi ilmiy va madaniy tajribalar yaratadi, shuningdek, universitetning

dunyo miqyosidagi nufuzini oshiradi. Xalqaro sertifikatlar va diplomlar, o'quv dasturlari va ilmiy tadqiqotlar o'zaro manfaatli bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash oliy ta'lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'quv dasturlarini va tadqiqotlarni yangi texnologiyalar bilan bog'lash, ilmiy izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish universitetni nafaqat ilmiy, balki iqtisodiy jihatdan ham rivojlantirishga olib keladi. Talabalar universitetning asosiy faoliyatini tashkil etuvchi element hisoblanadi. Ular bilan samarali aloqalar o'rnatish, ularning ehtiyojlarini va fikrlarini eshitish boshqaruvni yaxshilaydi. Shuningdek, universitetning xodimlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatish, ularning ehtiyojlarini inobatga olish va motivatsiyani oshirish muassasa faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Boshqaruv jarayonlarining shaffofligi universitet ichidagi ishonchni mustahkamlaydi. Ochiq siyosatlar, qarorlar qabul qilish jarayonida barcha tomonlar bilan maslahatlashish, institut ichidagi axborot almashish samarali boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi. Boshqaruvning ochiqligi, shuningdek, jamiyatdagi umumiy qabulni kuchaytiradi va oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Oliy ta'lim muassasasining rivojlanishida ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar universitetning ilmiy darajasini oshirish, jamiyatga yangi bilimlar taqdim etish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish imkonini beradi. Ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va unga investitsiyalar kiritish orqali oliy ta'lim muassasasining jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Samarali boshqaruvning asosiy elementlaridan biri — bu liderlik. Oliy ta'lim muassasasining rektori va boshqaruv rahbarlari o'z yo'nalishlarini aniq belgilab, strategik rejalashtirish jarayonini amalga oshirishlari kerak. Ushbu rejalashtirish nafaqat universitetning ichki faoliyatini tartibga solish, balki ta'lim sifatini oshirish, ilmiy faoliyatni rivojlantirish va jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasasining faoliyatida resurslarni samarali boshqarish muhim o'rin tutadi. Bu resurslar quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Moliyaviy resurslar: Universitetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va mablag'larni to'g'ri taqsimlash.

Moddiy-texnik baza: Zamonaviy auditoriyalar, laboratoriyalar va texnologik infrastrukturani yaratish.

Boshqaruv jarayonining shaffofligi universitet ichidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Ochiq va adolatli boshqaruv tizimi talaba va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, shuningdek, jamiyatda universitetning imijini ijobiy tomondan o'zgartiradi. Talabalar oliy ta'lim muassasasining markaziy qismini tashkil etadi. Ularning ehtiyojlari va fikr-mulohazalarini eshitish, ular bilan samarali aloqalar o'rnatish va ularni o'qish jarayoniga faol jalb qilish boshqaruvning samaradorligini oshiradi. Talabalar fikrini inobatga olish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki universitetning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasasini samarali boshqarish, uning o'qitish, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan muhim komponentdir. Boshqaruvning samarali tizimi, rahbarlik, strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish, xalqaro hamkorlik, innovatsion yondashuvlar va talabalar bilan aloqalarni yaxshilash kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bu barcha omillarni birlashtirish orqali universitet jamiyat va iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shishi mumkin. Samarali boshqaruv oliy ta'lim muassasasining rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Muassasani boshqarish jarayonida strategik rejalashtirish, ta'lim sifatini oshirish, resurslarni samarali boshqarish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ochiq boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu barcha omillarni birlashtirib, oliy ta'lim muassasalarini jamiyat va iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadigan muassasalar sifatida boshqarish mumkin. Ta'lim muassasalari tizimini samarali boshqarish uchun mintaqada va umuman, yaqin kelajakda sodir bo'layotgan va kutilayotgan o'zgarishlarni doimiy ravishda hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasini boshqarishning asosiy maqsadi samarali erishish uchun kuchlar, vositalar, vaqt, inson resurslaridan tizimli foydalanish kerak. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, o'z fanini innovatsion yondoshuv asosida o'qitishni, interaktiv usul va vositalardan unumli foydalanishi, fanning muhim muommolari yuzasidan erkin fikr

yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo axborot texnologiyalari malakalarini egallashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 09.09.2017 yildagi PQ-3261-son
2. Бугева, Л. П. Личность и среда. Ребенок в системе коллективных отношений образовательного учреждения интернатного типа. [Текст] - М., 1972.
3. Буртовой, И. Д. О критериях оценки результатов труда учителей и трудящихся. [Текст] / И. Д. Буртовой, Б. П. Зязин - Алма-Ата, 1985.
4. Васильев, Ю. В. Педагогическое управление в школе-интернате: методология, теория, практика. [Текст]-М., 1990.
5. Габдуллин, Г. Г. Перестройка школы: проблемы управления. [Текст]/ Г. Г. Габдуллин - Казань, 1990,
6. Горбунова, Н. В, Управление школами нового типа. [Текст] / Н. В. Горбунова, Н. А. Шарай - М., 2002.
7. Журавлев, В. И. Взаимосвязь педагогической науки и практики. [Текст] / В. И. Журавлев -М., 1984. Международный научный журнал № 15(100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» Ноябрь , 2023 255
8. Загвязинский, В. И. Творчество в управлении школой. [Текст] / В. И. Загвязинский, С. А. Гильманов - М., 1991.
9. Лазарев, В. С. Руководство педагогическим коллективом модели и методы. [Текст] / В. С. Лазарев - М., 1995.

10. Мелик-Пашаев, А. А. Гуманизация образования: проблемы и возможности. [Текст] / А. А. Мелик-Пашев // Вопросы психологии. - 1989. -№ 5. — С. 11.

11. Степанов, Е, Н. Воспитательный процесс: изучение эффективности. [Текст] / Е. Н. Степанов : Методические рекомендации. - М., 2000.